



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

TA'LIM JARAYONIDA VIRTUAL TA'LIMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Bakitova Zeynep Joldasovna
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Pedagogika magistratura mutaxassisligi
1- kurs magistranti
telefon nomer +998998901703
Elektron pochta:zeynepbakitova2@gmail.com

Annotatsiya:

Maqolada virtual ta'lim texnologiyalarining an'anaviy ta'lim jarayonidan ustun va cheklangan tomonlari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Virtual ta'limning moslashuvchanlikni ta'minlashi, individual o'quv trayektoriyalarini yaratish imkoniyati shu bilan birga, pedagogik muloqotning jonli komponentining kamayishi va o'qituvchining raqamli didaktik kompetensiyalariga talabning ortishi kabi cheklovlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: virtual ta'lim, an'anaviy ta'lim, raqamli kompetensiya, individual ta'lim trayektoriyasi, raqamli platformalar, didaktik imkoniyatlar.

Аннотация:

В статье проводится научный анализ преимуществ и ограничений технологий виртуального образования по сравнению с традиционным образовательным процессом. Освещаются преимущества, связанные с обеспечением гибкости и созданием индивидуальных образовательных траекторий, а также раскрываются такие ограничения, как уменьшение живого компонента педагогического общения и повышение требований к цифровой дидактической компетентности преподавателя.

Ключевые слова: виртуальное образование, традиционное образование, цифровая компетентность, индивидуальная образовательная траектория, цифровые платформы, дидактические возможности.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

Abstract:

The article provides a scientific analysis of the advantages and limitations of virtual education technologies compared to the traditional educational process. It highlights the advantages related to ensuring flexibility and the creation of individual learning trajectories, as well as reveals such limitations as the reduction of the live component of pedagogical communication and the increased requirements for teachers' digital didactic competence.

Keywords: virtual education, traditional education, digital competence, individual learning trajectory, digital platforms, didactic possibilities.

Zamonaviy ta'lim jarayonida virtual ta'lim texnologiyalari an'anaviy ta'lim shakllari bilan bir qatorda muhim o'rin egallamoqda. Ushbu texnologiyalar talabalarga individual o'quv traektoriyalarini yaratish, o'qish jarayonini moslashuvchanlik bilan tashkil etish va monitoringni avtomatlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik muloqotning jonli komponenti kamayishi, o'quv intizomini nazorat qilish qiyinlashishi va o'qituvchilardan raqamli didaktik kompetensiyalarni talab qilishi kabi cheklovlar mavjud. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida masofaviy ta'lim shakli rasmiy ravishda tan olingan[1]. Virtual ta'lim — aynan shu masofaviy ta'lim shaklining zamonaviy, raqamli vositalar asosidagi ko'rinishi hisoblanadi. Shu sababli, pedagogika sohasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy fazilatlarini rivojlantirishda virtual texnologiyalarning roli va samaradorligini o'rganish ilmiy jihatdan ahamiyatli. Shuningdek, global miqyosda ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish tendensiyasi virtual ta'limni qo'llashni dolzarb qiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarning zamonaviy malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga pedagogika sohasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy fazilatlarini rivojlantirishda virtual texnologiyalarning roli va samaradorligini o'rganish ilmiy jihatdan ahamiyatli to'rt bosqishi mavjud:

1. O'quv jarayonini optimallashtirish va individual yondashuvni ta'minlaydi.
2. Kasbiy va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

3. Pedagogik metodlarni eksperimental tekshirish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

4. Global ta'lim tendensiyalariga mos bo'lishni ta'minlaydi [2].

Virtual ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonida ko'plab imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ayrim cheklovlar va qiyinchiliklarni ham yuzaga keltiradi. Birinchi navbatda, pedagogik muloqotning jonli komponenti kamayadi, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi bevosita ijtimoiy va emotsional aloqalar pasayadi. Bu esa talabanning motivatsiyasiga va sinfdagi interaktivlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, o'quv intizomini nazorat qilish qiyinlashadi. Masofaviy va virtual muhitda talabalarni o'z vaqtida topshiriqlarni bajarishga majburlash va ularning faol ishtirokini monitoring qilish an'anaviy sinf sharoitlariga qaraganda murakkabroq bo'ladi.

Uchinchidan, virtual ta'limning samarali ishlashi texnik infratuzilmaga bog'liq. Internet tezligi, qurilmalar sifati va raqamli platformalarning barqarorligi o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlashda muhim omillar hisoblanadi.

To'rtinchidan, virtual ta'lim jarayonida o'qituvchilardan raqamli didaktik kompetensiyalar yuqori talab qilinadi, ya'ni o'qituvchi nafaqat mavzuni yetkazishi, balki raqamli vositalar yordamida interaktiv va samarali metodlarni qo'llay olishi zarur[3].

Shu sababli, virtual ta'lim texnologiyalari an'anaviy ta'limga nisbatan samaradorlik jihatidan afzalliklarga ega bo'lishi bilan birga, pedagogik, texnik va metodik cheklovlarni hisobga olgan holda qo'llanilishi zarur. Quyida Estoniyada virtual/raqamli ta'lim texnologiyalarining an'anaviy ta'lim bilan integratsiyasi bo'yicha muhim jihatlar keltirilganligi to'g'risida mulohaza olib boramiz; Estoniya zamonaviy ta'lim tizimida raqamli ko'nikmalarni ("digital competence") o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari qatorida ko'radi.

- Mamlakatda 1997-yilda boshlangan "Tiigrihüpe (Tiger Leap)" dasturi maktablarni kompyuterlar bilan jihozlash, internetga ulash va pedagoglarni tayyorlashni maqsad qilgan.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

• Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va interaktiv vositalar keng qo'llaniladi; masalan, maktablarda smart-board, raqamli topshiriqlar, elektron sinf jurnali va boshqalar.

• Yaqinda Estoniya "AI Leap" dasturini ishga tushirgan, unda 16-17 yoshli talabalar va o'qituvchilar AI (sun'iy intellekt) vositalari bilan jihozlanmoqda[4]. Shu bilan birga Estoniya bilan O'zbekiston ta'lim tizimida virtual/raqamli ta'lim texnologiyalarini qo'llash bo'yicha solishtirma tahlil keltirilgan — har ikki mamlakatda boricha yondashuvlar bor, lekin amalga oshirish darajasi va formalari turlicha Estoniya mamlakati yuqorida ko'rsatilgan bizning mamlakatimizda esa shular mavjud;

• O'zbekistonda ham raqamli ta'lim yo'nalishida bir qator tashabbuslar mavjud: masalan, One Million Uzbek Coders loyihasi, yoshlar va o'qituvchilar uchun raqamli kurslar.

• Texnik va kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish maqsadida UNESCO Institute for Lifelong Learning (UIL) bilan hamkorlikda texnik va kasb-mahorat ta'limi (TVET) o'qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini mustahkamlash bo'yicha seminar o'tkazilgan.

• Raqamli platformalar va onlayn kurslar kengaymoqda, lekin estoniya darajasida barcha maktablarda bir xil jihozlash va raqamli infratuzilma hali emas[5].

Xulosa qilib aytganda, shuni hisobga olgan holda, virtual ta'lim texnologiyalari an'anaviy ta'lim bilan birgalikda qo'llanganda, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, pedagogik, texnik va metodik jihatlar uyg'unlashtirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020)
2. Bates A. W. (2019). Teaching in a Digital Age. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning.
3. Rasulova M., & Qodirov, B. (2018). Pedagogik innovatsiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Toshkent.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th November, 2025

4. UNESCO Estonia: Early adopter of digital technology in education. (2025). Retrieved from <https://www.unesco.org/en/articles/estonia-early-convert-digital-technology>

5. UNESCO Institute for Lifelong Learning (UIL). Strengthening digital competencies of TVET educators in Uzbekistan. UNESCO. Olingan manzil: <https://www.unesco.org/en/articles/strengthening-digital-competencies-tvet-educators-uzbekistan-uil>. (2024).